XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 31 - dekabr VI-45-127-1-24-K/22 Marhamat tumani hokimligi

2023 yil uchun Marhamat tumanining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 813 -sonli Qonuni, xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2022 yil 31 dekabrdagi “2023 yil uchun Andijon viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-45-227-1-0-K/22-sonli qaroriga asosan hamda Andijon viloyat moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01/01-38/433 -sonli xatini inobatga olib, Byudjet Kodeksining 27-, 99-moddalariga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Marhamat tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 813-sonli Qonuni, xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2022 yil 31 dekabrdagi “2023 yil uchun Andijon viloyatining mahalliy budjetining tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-45-227-1-0-K/22-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi), xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2022 yil 31 dekabrdagi “2023 yil uchun Andijon viloyatining mahalliy budjetining tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-45-227-1-0-K/22-sonli qarorlariga muvofiq, Marhamat tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari 72 mlrd. 671 mln 920 mingso‘m, xarajatlari 229 mlrd 709 mln 322 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 157 mlrd 37 mln 402 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023 yil uchun tuman budjeti daromadalari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Marhamat tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023 yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 mlrd 564 mln 500 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tumanlar va shaharlar budjetlari jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tumanning tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlar miqdori oshgan hollarda tegishli budjetlar zaxira jamg‘armalarining belgilangan miqdorlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Viloyat budjetining zaxira jamg‘armasidan tuman budjetiga mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu Qarorga o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

9. 2023 yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar;

aylanmadan olinadigan soliq.

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra tumanlar va shaharlar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyat budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘idan tushumlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek

avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan viloyatlar mahalliy budjetlariga o‘tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 50 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 50 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 25 foizi o‘tkaziladi.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov, Moliya bo‘limi (M.Maxmudov), Davlat soliq inspeksiyasi (I.Botirov) tuman hokimligi, mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Botirov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (O.Xamraqulov) xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish hamda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning yer uchastkalari va mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini ta’minlasin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Botirov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (O.Xamraqulov), tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (F.Abdullaev), tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Marhamat bo‘limiga tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud

qarzdorliklarni budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi (M.Sotqulov), tuman va hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Tuman xokimligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi xamda, bo‘sh turgan ob’ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Andijon viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «E-IJRO Auksion» elektron savdo maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

16. Tuman soliq inspeksiyasi (I.Botirov), tuman moliya bosh bo‘limi (M.Maxmudov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan 2023 yilning 1 iyuliga qadar 2022 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanishi hamda 2023 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Tuman xokimligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Tuman Irigatsiya bo‘limi (R.Raxmonov), tuman davlat soliq inspeksiyasi

(I.Botirov)tuman xokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman ichki ishlar bo‘limi, tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi, Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

20. Tuman moliya bo‘limi (M.Maxmudov) xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash bo‘limlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

21. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish maqsadida monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirib borsin.

22. Tuman hokimligi:

tuman mahalliy budjetlari jami xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlari zaxira jamg‘armasi mablag‘lari mustasno) 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m rejalashtirilishi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining

kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda fuqarolar yig‘inlaridagi hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Mazkur qaror “Oq oltin” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

26. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Б. Юлдашев**

Xalq deputatlari Marhamat
tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-127-1-24-K/22-son
qaroriga
1-ilova

2023 yil uchun Marxamat tumani mahalliy budjet daromadlari ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turi	Jami
	Jami daromadlar	**72 671 920**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuщie) daromad**	**11 279 250**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	45 117 000
	ajratma meyori	*25*
1.	mahalliy budjetga	11 279 250
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	7 749 000
	ajratma meyori	
2.	mahalliy budjetga	0
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**32 097 500**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**19 091 000**
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 979 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	1 067 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 318 000
4	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	1 729 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 808 000
6	Ijara to‘lovlari	190 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**13 006 500**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	12 369 000
	ajratma meyori	

	mahalliy budjetga	0
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 302 000
	ajratma meyori	*50*
	mahalliy budjetga	2 151 000
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 959 000
	ajratma meyori	*50*
	mahalliy budjetga	2 979 500
4	Yagona soliq to‘lovi	7 376 000
	ajratma meyori	*100*
	mahalliy budjetga	7 376 000
5	Xusiylashtirish	1 000 000
	ajratma meyori	*50*
	mahalliy budjetga	500 000
6	Yig‘imlar	802 000
	ajratma meyori	
	mahalliy budjetga	0
	Viloyat budjetiga	**0**
1	Davlat bojlari	
2	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	
3	Jarimalar	
4	Boshqalar	
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**29 295 170**
	Aholi soni (ming kishi)	*180*
15.	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	11 851 400
16.	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	5 083 560
17.	Tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i	12 360 210
	Ma’lumot uchun: 2021 yil parametr	*58 673 730*
	JAMI XARAJATLAR	**229 709 322**
	TRANSFERTLAR	**157 037 402**

Xalq deputatlari Marhamat
tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-127-1-24-K/22-son
qaroriga
2-ilova

2023 yil uchun Marxamat tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
a	**Xarajatlar miqdori, Jami**	**229 709 322,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**229 709 322,0**
	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	**0,0**
	Davlat tashqi qarzlarini so‘ndirish	**0,0**
	Advokatlar xizmati	**0,0**
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	**0,0**
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	**0,0**
	Toshkent viloyatida liftlarini almashtirish xarajatlari	**0,0**
	Yo‘l jamg‘armasi	**0,0**
	Davlat maksadli jamgarmalar	**0,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
1	**Maktabgacha ta’lim boshqarmasi**	**12 572 938,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 572 938,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
2	**Xalq ta’limi boshqarmasi**	**7 961 304,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 961 304,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	**Prezident ta’lim muassasalari agentligi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4	**Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**74 678 184,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	74 678 184,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6	**Madaniyat boshqarmasi**	**6 015 104,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 015 104,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7	**Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi**	**6 622 009,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 622 009,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Yo‘l harakati ekspluatatsiya va montaj bo‘limlari**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9	**Viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	0,0
	Toshkent viloyatida liftlarini almashtirish xarajatlari	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**1 154 613,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 154 613,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	**O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligining**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**1 888 500,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 888 500,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15	**Transport boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**Moliya bosh boshqarmasi**	**1 409 851,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 409 851,0
	Davlat tashqi qarzlarini so‘ndirish	0,0
	Advokatlar xizmati	0,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	0,0
	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	0,0
	Yo‘l jamg‘armasi	0,0
	Davlat maksadli jamgarmalar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**G‘aznachilik boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20	**Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21	**Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22	**Turizmni rivojlantirish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23	**O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
24	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**961 978,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	961 978,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
25	**Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
26	**Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
27	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
28	**Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi**	**800 821,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	800 821,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
29	**Qurilish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
30	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
31	**Adliya boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
32	**Iktisodiy tarakkiyot va kambagallikni kiskartirish boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
33	**Hokimiyat**	**88 966 780,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	88 966 780,0
	shu jumladan:	
	Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
34	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**14 009 358,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 009 358,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
35	**Xalq Deputatlari Kengashi**	**206 300,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	206 300,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
36	**Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi**	**4 213 921,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 213 921,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
37	**Yoshlar agentligi hududiy bo‘linmalari**	**4 967 324,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 967 324,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
38	**Xotin-qizlar boshqarmasi**	**3 280 337,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 280 337,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
39	**Uzbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
40	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspesiyasining hududiy boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
41	**Saylov komissisiyalari**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
42	**Davlat arxivi boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
43	**Boshqa tashkilotlar**	**0,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Marhamat tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-127-1-24-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023 yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori*

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Foyda solig‘i	Aylanma-dan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, shu jumladan qat’iy belgilangan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yig‘im-lar**	Davlat bojlari**	Jarima-lar**	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan olingan daromadlar	Yer uchastka-lariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	Boshqa (3450603, 3450721, 3450723, 3450950, 3450951, 3511700, 3710303 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar
1	**Marhamat tumani**	0	100	25	100	100	100	100	100	50	50	0	0	0	0	50	50	100	100

***Mazkur ilovada ko‘rsatilganidan tashqari qolgan barcha tushumlar viloyat budjetiga o‘tkaziladi**

****Davlat bojlari, jarimalar va yig‘imlarning ayrim turlari bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda tegishli budjetlarga ajratma qilinishi mumkin**

Xalq deputatlari Marhamat
tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-127-1-24-K/22-son
qaroriga
4-ilova

2023 yil uchun Marxamat tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
	JAMI	**72 671 920,0**	**229 709 322,0**
1	Marhamat tumani	72 671 920,0	229 709 322,0

* Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan ajratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Marhamat
tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-127-1-24-K/22-son
qaroriga
5-ilova

2023 yil uchun Marxamat tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Summa
	JAMI	**157 037 402,0**
1	Marhamat tumani	157 037 402,0